



**2019 yil yanvar-avgust oylarida Samarqand viloyatida
sanoat ishlab chiqarishning rivojlanishi**



Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha 2019 yil yanvar- avgust oylarida viloyatdagi korxonalar tomonidan 10092,9 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo’lib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 110,0 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o‘sishining asosiy omili bo’lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoati - 10,5 % ga, tog’-kon va ochiq konlarni ishlash - 1,8 % ga o’sishi hisoblandi.

**Yanvar-avgust oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi
(2019 yil yanvar-avgust)**



Samarqand viloyatida o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi



Tog’-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Tog’-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2019 yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 74,8 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan mahsulotlari hajmining 0,7 % ni tashkil etdi.



shundan:

ko‘mir, lignit, neft va tabiiy gaz qazib olish
tog’-kon sanoatining boshqa faoliyatları

	<i>Mlrd.so‘m</i>	<i>Jamiga nisbatan ulushi %</i>
ko‘mir, lignit, neft va tabiiy gaz qazib olish	0,1	0,1
tog’-kon sanoatining boshqa faoliyatları	74,7	99,9



Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati)

2019 yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 9701,2 mlrd. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 96,1 % ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmogʻining ulushi 0,7 % ni, oʻrta-yuqori texnologiyali 27,5 % ni, oʻrta-quyi texnologiyali - 11,6 % ni va quyi texnologiyali - 56,3 % ni tashkil etdi.

shundan:

	<i>Mlrd. soʻm</i>	<i>Jamiga nisbatan ulushi %</i>
oziq-ovqat mahsulotlari, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish	3707,5	38,2
toʻqimachilik mahsulotlari, kiyim va teri mahsulotlarini ishlab chiqarish	1745,7	18,0
mashina va uskunalarini ishlab chiqarish, taʼmirlash va oʻrnatish, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar va boshqa tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	2751,4	28,4
kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	311,5	3,2
metallurgiya sanoati	461,9	4,8
koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	4,6	0,05
yogʻoch va poʻkak buyumlar, pohol va toʻqish uchun materiallardan buyumlar, qogʻoz va qogʻoz mahsulotlari, mebel ishlab chiqarish	175,0	1,8
yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	24,7	0,3
asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlarini ishlab chiqarish	55,9	0,6
boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	463,0	4,8

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 260,6 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,6 % ni) tashkil etdi.



shundan:

elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ uzatish va havoni konditsiyalash tizimlari



Mlrd. so‘m *Jamiga nisbatan ulushi %*

260,6	100,0
-------	-------

Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 56,3 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ni) tashkil etdi.

shundan:

Suvni yig`ish, qayta ishslash va taqsimlash
chiqindilarni yig`ish, ishlov berish, yo'qotish,
utilizatsiya qilish

Mlrd. so‘m *Jamiga nisbatan ulushi %*


39,9	70,9
------	------

16,4	29,1
------	------

Iste’mol tovarlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste’mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 5724,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2018 yil yanvar-avgust oylariga nisbatan 2,2 % ga o’sishini ta’minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 56,7 % ni tashkil etdi.

**2019-yilning yanvar-avgust oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish
tarkibi va o'sish sur'ati**



2018 yil yanvar-avgust oylariga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 66,7 % dan 2019-yil yanvar-avgust oyida 64,4 % ga pasayishi kuzatilmogda.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida sharob va aroq mahsulotlari hamda pivo 4,1 % ni (2018-yil yanvar-avgust oylarida 3,3 %) tashkil etdi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining ishlab chiqarilishi


Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 4332,8 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib, jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 42,9 % ni tashkil etdi.

**Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarining
umumiy sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, %**

2018 yil yanvar-avgust




2019 yil yanvar-avgust




Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar
Viloyatning boshqa korxonalari

**2019 yil yanvar-avgust oylarida hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish hajmi
(mlrd. so'm)**



Viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'pi Samarqand shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 45,1 %), Jomboy (16,6 %), Urgut (8,1 %), Samarqand (8,0 %) va Tayloq (6,4 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


**2019 yil yanvar-avgust oylarida hududlar bo'yicha sanoat ishlab
chiqarish indeksi (%)**



Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 5476,9 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib, jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 54,3 % ni tashkil etdi.

**2019 yilning yanvar-avgust oylarida hududlar bo'yicha yirik korxonalar va kichik
biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %.**



Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Nurobod tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Qo'shrabot (100,0 %), Urgut (97,9 %), Samarqand (99,7 %), Oqdaryo (95,2 %) va Tayloq (92,4 %) tumanlarida kuzatildi.

Shu bilan birga, eng kichik ulush, Kattaqo'rg'on shahri (28,0 %), Narpay (24,2 %) va Jomboy (18,2 %) tumanlarida kuzatildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti turlarini ishlab chiqarish

(yirik korxonalar bo'yicha)

Qayta ishslash sanoati

<i>Sanoat mahsulotlari nomi</i>	<i>O'lchov birligi</i>	<i>2019-yil yanvar-avgust</i>	<i>O'sish sur'ati, %</i>
Tarkibida ikkita ta'minlovchi element—azot va fosfor bo'lgan mineral yoki kimyoviy o'g'itlar	 ming tonna	19,82	102,8 
Aroq	 ming l. 100% spirit	269,4	25,1 
Uzum vinosi yoki uzum turpini distillash natijasida olingan spirit nastoykalari, konyak spirtidan tashqari	 ming l. 100% spirit	162,70	90,5 
Uzum vinosi	 ming l.	563,4	85,6 
Pivo (pivo ishlab chiqarish chiqindilardan tashqari)	 ming l.	23012,0	90,1 

2019-yilning yanvar-avgust oylarida Samarqand viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

Yumshoq bug'doy va
spelta uni



ming tn. 94299,0 95,6 ↓

Birinchi navli undan
tayyorlangan bug'doy
noni (buxanka), og'irligi
600 g.



tn. 440,5 80,1 ↓

Tozalangan paxta yog'i
va uning fraksiyalari
(kimyoviy modifikatsiya
qilinganlaridan tashqari)



tn. 5350,0 71,5 ↓

Paxta tolasi



ming tn. 18,7 43,0 ↓

Paxta chigiti



ming tn.
ming tn. 30,8 176,8 ↑

Paxta tiviti (lint)



tn. 1612,0 57,0 ↓

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Issiqlik elektr markazlari
(IEM) ishlab chiqargan
elektr energiyasi



mln.kVt/s 58,9 130,1 ↑

Bug' va issiq suv (issiqlik
energiyasi)




ming Gkal. 42,2 113,7 ↑

Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 5732 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1508 tasi (mavjud korxonalar umumiy sonining 26,3 %) Samarqand shahriga, 821 tasi (14,3 %) Urgut tumaniga, 542 tasi (9,5 %) Samarqand tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlik


(2019 yil 1 sentyabr holatiga)



2019 yil yanvar-avgust oylarida viloyatda 1472 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi va tashkil etilganlarning eng ko‘pi Samarqand shahri (18,7 foiz), Urgut (10,4), Pastdarg‘om (10,1 foiz), Samarqand (8,6 foiz) tumanlariga to‘g‘ri keladi.

Yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlik

(2019 yil 1 sentyabr holatiga)



Sanoat statistikasi bo‘limi
E.A.Qo‘qonov
Tel: (66) 235-06-80